

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

3-2025
PEDAGOGIKA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Р.З.Хайров	
Интеграция Adobe Photoshop и платформ Google Arts & Culture в образовательный процесс будущих педагогов изобразительного искусства	106
X.A.Madaminov	
Turli yosh toifasidagi yunon-rum kurashchilarini morfofunktsional ko'rsatkichlarini o'rganish tahlili	114
S.T.Xakimov, M.N.Murodova	
10–12 yoshli qizlar orasida chim ustida xokkey bo'yicha jismoniy chidamlilikni oshirish metodikasi.....	120
A.N.Qosimov	
Sport vositasida milliy identiklikni shakllantirish: ijtimoiy-pedagogik asoslar va zamonaviy yondashuvlar.....	125
S.T.Xakimov, K.M.Uktamova	
Gimnastika darslari misolida nodavlat ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini o'tkazishda innovatsion metodlarni tatbiq qilish	130
B.B.Xaitbayeva	
Ritmik gimnastikani maktab jismoniy tarbiya tizimiga joriy etishning zamonaviy usullarini ishlab chiqish	134
Z.N.Usmonov	
Ixtiyoriy harakatlar va ularning fiziologik mexanizmi	140
A.I.Tuychiyev	
Maktab yoshidagi o'quvchilar organizmida funksional faollikni ta'minlovchi asosiy omillar.....	145
Sh.D.Ismoilov	
Jismoniy harakatlarning mazmuni va strukturasining nazariy asoslari	151
T.T. Yusupov	
Inson jismoniy rivojlanganligi va tayyorgarligining o'lchamlari tahlili	156
M.G'.Zaylobidinova	
Nodavlat ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning hayotiy ko'nikmalarini oshirish kasbiy muvaffaqiyat asosidir.....	162
M.X.Komilova	
G'arb ilmiy tadqiqotlarida onomastikasining pedagogik ahamiyati	168
N.R. Mansurova	
Milliy musiqiy merosni asrab-avaylashning ijtimoiy ahamiyati va tarbiyaviy xususiyatlari.....	172
A.K.Yusupova N.A.Aliyev	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining o'z-o'zini rivojlantirish kompetentligini rivojlanishning ba'zi masalalari	180
G.Sh. Latipova	
Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari	184
N.O. Xaydarova	
Tibbiyot OTMlari o'quv jarayonida bo'lajak shifokorlarning reflektiv madaniyatini rivojlantirishning nazariy asoslari.....	191
М.М.Боркошев	
Влияние тренерского стиля на социализацию юных спортсменов в командных видах спорта.....	195
S.S.Ubaydullayev	
Talabalarni ilmiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirish.....	199
Z.N.Ortiqova	
Kichik yoshdagi o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va ularning assotsiativ fikrlashga ta'siri	203
М.М.Умаралиева	
Развитие самостоятельного обучения в высшем образовании с помощью интерактивных мультимедийных инструментов	207
Z.N.Ortiqova, Sh.M.Yigitaliyeva	
Boshlang'ich sinflarda umumlashtiruvchi dars tushunchasi va uning maqsadlari	211
H.A.Saipova, X.I.Obidova	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentligini rivojlantirishda hikoyaning o'rni.....	215



UO'K: 37.015.3:796.28

SPORT VOSITASIDA MILLIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISH: IJTIMOYIY-PEDAGOGIK ASOSLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR**СПОРТ В ВОСПИТАНИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ: СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ****SPORT IN THE EDUCATION OF NATIONAL IDENTITY: SOCIO-PEDAGOGICAL FOUNDATIONS AND MODERN APPROACHES****Qosimov Akmal Nasridinovich** 

Farg'ona davlat universiteti, Jismoniy tarbiya nazariyasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu ilmiy tadqiqotda sport vositasida milliy identifikatsiya shakllantirishining ijtimoiy-pedagogik asoslari va zamonaviy yondoshuvlari batafsil tahlil qilinadi. E'tibor milliy identifikatsiyaning sport orqali shakllanishini, ya'ni sportning millatchilik, qadriyatlar va milliy an'analarni mustahkamlashdagi rolini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotda milliy sport turlarining ahamiyati, sportning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni va bu orqali jastarimizning milliy o'zlikni his qilishidagi ta'siri muhokama qilinadi.

Zamonaviy yondoshuvlar orqali raqamli texnologiyalar, ijtimoiy media va globalizatsiya sharoitida milliy identifikatsiyani qo'llab-quvvatlash mexanizmlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari sport vositasida milliy identifikatsion mexanizmlarni ishlab chiqish, ijtimoiy va pedagogik dasturlarni takomillashtirish, xokimiyat, ta'lim va jamiyat orasida samarali hamkorlikni ta'minlash bo'yicha takliflarni o'z ichiga oladi. Mazkur ishlarimiz orqali mazkur muammolarga yanada aniqlik kiritish va sport orqali milliy identifikatsiya shakllantirishning samaradorligini oshirish yo'llarini aniqlash maqsad qilingan.

Аннотация

В данном научном исследовании подробно анализируются социально-педагогические основы и современные подходы к формированию национальной идентичности через спорт. Внимание уделяется тому, как национальная идентификация формируется через спорт, а именно роли спорта в укреплении национализма, ценностей и традиций. В исследовании обсуждается значение национальных видов спорта, место спорта в социальном развитии и влияние на молодежь в осознании своей национальной сущности.

Современные подходы рассматривают механизмы поддержки национальной идентификации в условиях цифровых технологий, социальных медиа и глобализации. Результаты исследования включают предложения по разработке национальных идентификационных механизмов через спорт, совершенствованию социальных и педагогических программ, а также обеспечению эффективного сотрудничества между властями, образованием и обществом. Целью данной работы является дальнейшее уточнение данных проблем и выявление путей повышения эффективности формирования национальной идентичности через спорт.

Abstract

This scientific research provides a detailed analysis of the socio-pedagogical foundations and modern approaches to shaping national identity through sports. The focus is on the formation of national identity through sports, specifically examining the role of sports in strengthening nationalism, values, and national traditions. The study discusses the significance of national sports, the role of sports in social development, and its impact on the youth's sense of national identity.

Through modern approaches, the research examines the mechanisms for supporting national identity in the context of digital technologies, social media, and globalization. The findings include proposals for developing national identity mechanisms through sports, improving social and pedagogical programs, and ensuring effective cooperation between government, education, and society. The goal of this work is to provide greater clarity on these issues and identify ways to enhance the effectiveness of shaping national identity through sports.

Kalit so'zlar: milliy identifikatsiya, sport, ijtimoiy muhit, pedagogika, an'analalar, o'zlikni anglash, sportning ijtimoiy roli, jismoniy sog'lomlanish, manfaatlar, tarbiya, ijtimoiy integratsiya, yash silsilasi, urf-odatlar, madaniyatlararo aloqalar, jamoa ruhi, xalqaro miqyos, sport tadbirlari.

Ключевые слова: национальная идентичность, спорт, социальная среда, педагогика, традиции, самосознание, социальная роль спорта, физическое здоровье, интересы, воспитание, социальная интеграция, молодежь, обычаи, межкультурные связи, командный дух, международный уровень, спортивные мероприятия.

Key words: *national identity, sports, social environment, pedagogy, traditions, self-awareness, social role of sports, physical health, interests, education, social integration, youth, customs, intercultural relations, team spirit, international scale, sports events.*

KIRISH

Mamlakatlararo alternativada, milliy identifiklikni shakllantirish va uni sport vositasida o'rgatish yoshlarning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, tadbirkorlik kasblarini rivojlantirishga va milliy qadriyatlarni oddiy hayotda namoyon etishga xizmat qiladi. Sport, shunchaki jismoniy faoliyat emas, balki madaniyat, qadriyatlar va yoshlar orasini birlashtiruvchi vosita hisoblanadi.

Milliy identifiklik o'zini tanish, o'z millatini qadrlash, uning tarixiga, tilga va an'analarga ehtirom bilan munosabatda bo'lishni bildirishini anglatadi. Bu birlashuvni va umumiy manfaatlarni induvishda muhim o'rin tutadi. Oqilona tarbiya protsessini hamda ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda sport mahalliy milliy identifiklikni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Milliy identifiklik har bir millatning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy rivojlanishining asosiy mezon bo'lib, uni shakllantirishda turli omillar, xususan, ta'lim va tarbiyaning o'rnini katta. O'quvchilarda milliy identifiklikni shakllantirish jarayonida sportning ahamiyati alohida e'tiborga molik. Sport faoliyati nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi, balki milliy qadriyatlarni, urf-odatlarini, an'analarni e'tiborga olish va ularni kelajak avlodlarga o'rgatishning muhim vositasidir. Shuningdek, sport orqali o'z yurtini sevish, uning tarixiga hurmat bilan munosabatda bo'lish va milliy baxtni his qilish hissi shakllantiriladi.

Milliy identifiklik – bu shaxsning o'zini muayyan milliy tuzilma, urf-odatlar va madaniyatning bir qismi sifatida anglashi. U insonning o'z milliy taraqqiyotiga, o'ziga xosliklarga, umumiy tarixiy va madaniy qadriyatlarga, qonun-qoidalarga bo'lgan munosabatini belgilaydi. Milliy identifiklikni shakllantirishning muhim omillaridan biri bu ma'naviy va madaniy ta'lim olish, shuningdek, ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan tarbiyadir.

O'quvchilarda milliy identifiklikni shakllantirish jarayonida aniq va samarali tarbiyalashning muhim qadamlaridan biri sportni tarbiya vositasi sifatida samarali foydalanishdir. Sport orqali insonning jismoniy salomatligini yaxshilash bilan birga, uning ma'naviy dunyosi ham rivojlanadi. Shuningdek, sport umumiy qadriyatlar, mehr-muhabbat va xalqaro va milliy o'zaro tushunishni targ'ib qilish uchun a'lo darajadagi vosita hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Milliy identifiklik insonning o'z xalqi, madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlari va tarixi bilan bog'liq shaxsiy hissi hisoblanadi. Milliy identifiklikni shakllantirish konsepsiyasi ko'plab ilmiy ishlarda tushuntirilgan. Mutaxassislar, jumladan, O'zbekistondagi pedagoglar, o'z tadqiqotlarida milliy identifiklikni yoshlarning ma'naviy rivojlanishining asosiy mezon sifatida ko'rishgan.

X.A. Raimova (2010) o'zining "Milliy identifiklik: Konseptual tushuncha" maqolasida milliy identifiklikni formalashtirishda pedagogik tarbiyaning o'rniga e'tibor qaratgan. U o'z tadqiqotida sportning yoshlarning ma'naviy-axloqiy rivojidagi muhim vosita ekanligini ta'kidlaydi. Ma'lumki, sport orqali yoshlar o'z xalqiga bo'lgan muhabbat va uning tarixiga hurmatni shakllantirish mumkin.

SH.M. Sharipov (2015) "Milliy qadriyatlar va milliy madaniyatni yoshlarga tarbiyalash" nomli tadqiqotida milliy identifiklikni shakllantirishda milliy sport turlarining ahamiyatiga to'xtalib, ular yoshlarda faxr va maqtanish hissinini uyg'otish uchun muhim vosita ekanini ta'kidlaydi. Bu qarashlarning ijtimoiy-pedagogik asoslariga aniqlik kiritgan va ularning milliy identifiklikni shakllantirishdagi o'rnini haqida ham muhim xulosalarni keltirgan.

Sport va uning yoshlar tarbiyasini shakllantirishdagi roli bilan bog'liq tadqiqotlar ham muhim o'rin tutadi. Buning asosiy maqsadi — yoshlarning jismoniy rivojlanishi bilan birga, ularni ma'naviy va axloqiy jihatdan ham tarbiyalash, jamiyatdagi o'z o'rnini topishlariga yordam berishdir.

L. P. Karamova (2012) "Sport orqali yoshlar tarbiyasi" nomli tadqiqotida sportning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor qaratib, uning yoshlarning shaxsiy rivojidagi muhim o'ringa qaratgan. U sport orqali yoshlar orasida adolat, mehr-muhabbat va jamoaviylik hissinini rivojlantirish mumkinligini aniqlagan. Bu tadqiqotda sportning yoshlarning axloqiy va madaniy qadriyatlarini o'rganishga xizmat qilishda muhim vosita ekanini ta'kidlagan.

I.V. Simonova (2014) "Sport va milliy tadbirlar: pedagogik va ijtimoiy aspektlar" nomli tadqiqotida, sportning yoshlarda milliy shaxsiyatni shakllantirishdagi o'rnini to'g'risida so'z boradi. Maqolada yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishida milliy sport turlarini o'rganish muhim

ekanligi, shuningdek, milliy ramzlar va an'analarga hurmat bilan munosabatda bo'lishda sportning o'rnini haqida fikr yuritilgan.

O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda faqat sport emas, balki turli pedagogik strategiyalar ham ahamiyatga ega. Pedagoglar o'z darslarida yoshlarga milliy qadriyatlarni o'rgatishga, ularda millatga bo'lgan muhabbat va maqtanish hissini rivojlantirishga harakat qilishlari zarur. Sport orqali yoshlar jismoniy tarbiya bilan birga, axloqiy qadriyatlarga, o'z tarixiga va madaniyatiga bo'lgan hurmatni shakllantiradilar.

A.A. To'liko'ziyev (2017) "Pedagogik tadbirlar va milliy madaniyat" maqolasida o'quvchilarda milliy madaniyat va identiklikni shakllantirishda pedagogik metodlarning samaradorligiga oid izlanishlarni chuqur o'rgangan. U, shuningdek, pedagogik tizimda milliy madaniyatga oid musobaqalar, festival va to'garaklarning ahamiyatiga urg'u bergan.

Sport orqali yoshlarda milliy identiklikni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan mezonlardan biri bu — milliy sport turlarini ommalashtirish va yoshlar o'rtasida ularni targ'ib qilishdir. Milliy sport turlarini yoshlarga o'rgatish, ularga shaxsiy va jamoaviy ko'nikmalarni oshirish bilan birga, milliy qadriyatlar va an'analarga bo'lgan muhabbatni shakllantirish imkonini beradi. Bundan tashqari, milliy sport musobaqalari yoshlar o'rtasida milliy o'ziga xoslikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

N.N. Abdullayev (2019) o'zining tadqiqotida, sport va milliy turizmning yoshlardagi milliy identiklikka ta'siri to'g'risida so'z yuritgan. Uning fikricha, milliy sport turlarini yoshlarga ta'lim berish va ularni keng ommalashtirish orqali, yoshlar orasida milliy shaxsiyatni shakllantirish imkoni paydo bo'ladi. Sport musobaqalari va milliy tadbirlar orqali, yoshlar o'z tarixi, urf-odatlar va qadriyatlari bilan tanishishga va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga o'rganadilar.

Adabiyotlar tahlili ko'rsatdiki, sport vositasida o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirish masalasi ijtimoiy, pedagogik va ma'naviy-axloqiy jihatlardan keng qamrovli tadqiqotlar talab qiladi. Milliy identiklikni shakllantirishda sportning jismoniy rivojlanishdan tashqari, yoshlarning ma'naviy-axloqiy o'sishiga qaratilgan muhim rolini ta'kidlash mumkin. Bu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar yoshlarda milliy qadriyatlar va urf-odatlar bilan bog'liq bo'lgan shaxsiy hissiyotlarni rivojlantirishga katta hissa qo'shmoqda.

TAHLIL VA NATIJA

Sport milliy urf-odatlarini, madaniyatni va tarixni yoshlarga yetkazishning a'lo vositasi bo'lishi mumkin. Sport to'garaklari, musobaqalar va turli sport musobaqalari orqali o'quvchilarga o'z xalqining tarixiga va madaniyatiga nisbatan ishtiyoqli bo'lish imkoniyati yaratiladi. Buning natijasida, sport orqali mamlakatdagi milliy qadriyatlarga, urf-odatlariga, milliy ramzlarga hurmat va ularga e'tibor ortadi.

Sport milliy identiklikni shakllantirishda yoshlar orasida o'z yurtiga bo'lgan muhabbatni ham rivojlantiradi. Sport musobaqalarida ishtirok etish, o'z komandalari uchun kurashish, mamlakat sharafiga himoya qilish, yoshlar orasida milliy baxt va maqtanish hissini paydo qiladi. Bu jarayonda, pedagoglar va trenerlar sportning nafaqat jismoniy, balki ma'naviy ahamiyatini ham yoshlarga tushuntirishlari kerak.

Milliy identiklik yoshlarning jamiytdagi ijtimoiy pozitsiyalarini belgilash va ularni ijtimoiy qadriyatlarga tayyorlashda muhim omil hisoblanadi. Sport musobaqalari yoshlarga turli millat va etnik guruhlar orasidagi o'zgarishlarga qaratilgan o'zaro tushunishni ham rivojlantiradi. Mazkur jarayonda sport milliy qadriyatlar, urf-odatlar va tilni saqlab qolishda muhim rol o'ynaydi.

Sport yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishida, axloqiy asoslarda o'zini tutishda katta rol o'ynaydi. Sport orqali, o'quvchilarda adolat va mehr-muhabbat, jamoaviy ishlash va mas'uliyat hissi shakllanadi. Bularning bari milliy identiklikni shakllantirishga xizmat qiladi, chunki bu qadriyatlar nafaqat shaxsni, balki butun milliy jamoani rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Sport jismoniy salomatlikni mustahkamlash va ruhiy rivojlanishga yordam berish bilan birga, insonning ma'naviy yuksalishida, ijtimoiy munosabatlar va axloqiy tarbiyani shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Sport orqali yoshlarda faxr va maqtanish hissini uyg'otish, ularni milliy qadriyatlarga, urf-odatlariga, tarixga muhabbatni oshirish mumkin. Maxsus pedagogik yondashuvlar va sportni tarbiya vositasi sifatida foydalanish orqali o'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirish muvaffaqiyatga erishishi mumkin.

PEDAGOGIKA

Milliy identiklik – bu shaxsning o'zini muayyan xalqning a'zosi, uning madaniyati, tarixiga, urf-odatlariga va qadriyatlariga munosabatini belgilaydi. Sportning yoshlarda milliy identiklikni shakllantirishdagi rolini tushunish, avvalo, uning tarbiyaviy funksiyalarini aniqlashni talab qiladi. Sport orqali insonda jismoniy rivojlanish bilan birga, axloqiy va ma'naviy xususiyatlar ham shakllanadi.

Sport milliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlarni yoshlarga tarbiyalash uchun samarali vosita hisoblanadi. Sport musobaqalari va turli tadbirlar orqali o'quvchilarga o'z xalqining madaniyati, tarixiy yodgorliklari va urf-odatlari haqidagi tushunchalar yetkaziladi. Shuningdek, sportga munosabatda yoshlar milliy shaxsiyatni qo'llab-quvvatlash va milliy maqtanish hissini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishda sportning asosiy mexanizmlari

Sport to'garaklari va klublari. Sport to'garaklari va sport klublarida yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi zarur. Bu dasturlarda milliy madaniyat, urf-odatlar, xalqning tarixiy merosi va qadriyatlari orasida aloqa o'rnatishga e'tibor qaratilgan bo'lishi kerak.

Milliy sport turlarini ommalashtirish. O'quvchilarni milliy sport turlari bilan tanishtirish va ularga qiziqish uyg'otish, ularda milliy maqtanish hissini shakllantirish uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, mahalliy hududlarda an'anaviy sport turlarini o'qitish va musobaqalar o'tkazish yoshlar orasida milliy identiklikni mustahkamlashga ko'maklashadi.

Musobaqalar va sport festivallari. O'quvchilarning milliy identiklikni shakllantirish jarayonida turli sport musobaqalari va festivallari muhim o'rin tutadi. Bu tadbirlar orqali yoshlar o'rtasida raqobatlashish, jamoaviy harakat qilish va g'alabaga erishish orqali milliy hissiyatlar rivojlantiriladi.

Sport orqali o'quvchilarda jamoaviylik, hamkorlik va mas'uliyat hissi shakllanadi. Bu xususiyatlar ularni o'z xalqiga nisbatan mehr va sadoqat tuyg'usini rivojlantirishga yordam beradi. Sport musobaqalarida qatnashish, mamlakat sharafiga himoya qilish yoshlar o'rtasida milliy baxt va maqtanish hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Milliy sport turlarini o'rgatish va ularni ommalashtirish, o'quvchilarga o'z xalqiga xos bo'lgan sport an'analarini tanitish, ularga urf-odatlar, qadriyatlar va tarixni yoshlarga tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Milliy sport turlarini targ'ib qilish orqali, yoshlar o'z xalqining tarixi va madaniyati bilan yaqindan tanishib, milliy identiklikka bo'lgan muhabbat va hurmatni rivojlantirish mumkin.

Sportda yoshlardan adolat, mustahkamlik, mehr va hurmat kabi axloqiy qadriyatlar talab qilinadi. Bu qadriyatlar yoshlarda nafaqat jismoniy rivojlanish, balki ma'naviy o'sish va ma'naviy jihatdan mukammal bo'lish uchun ham zarur. O'quvchilarda adolatni qadrlash, rag'bat bilan mukofotlash va ishonchni qaror toptirish orqali ularning axloqiy o'zgarishlarini kuzatish mumkin.

Sport yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Uning orqali yoshlar o'zlarining shaxsiy qadriyatlarini shakllantirish, rahbarlik qobiliyatlarini rivojlantirish va tashabbus ko'rsatish kabi muhim xususiyatlarni o'zlashtirishadi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, milliy qadriyatlarga ehtirom va o'z xalqiga bog'lanish hissini yanada mustahkamlaydi.

Milliy sport musobaqalari va festivallari yoshlar o'rtasida milliy identiklikni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bu tadbirlarda yoshlar o'zaro raqobatlashadi, mamlakat sharafiga himoya

qilishga harakat qiladilar. Shuningdek, ular mamlakatdagi har bir xalq va etnik guruhning madaniyati, urf-odatlarini va tarixiga ehtirom bilan qarashni o'rganadilar.

Sportdagi ishtirok yoshlarning jamiyatdagi ijtimoiy integratsiyasini ta'minlaydi. Sport musobaqalarida ishtirok etish, yoshlarning turli millatlar, etnik guruhlar va jamiyatlardagi ijtimoiy muhitga ohangli kirishini ta'minlaydi. Bu orqali milliy qadriyatlar va madaniyatlarni ham o'rganish mumkin. Sportdagi integratsiya, o'z navbatida, turli millatlar orasidagi hurmat va tushunishni oshiradi, bu esa milliy identiklikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Mamlakatda yoshlarning jismoniy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash uchun davlat siyosatida sportning o'rnini katta. O'quvchilarga sportning ahamiyatini tushuntirish, ularga milliy sport turlarini o'rgatish va musobaqalarni o'tkazish orqali yoshlar orasida milliy identiklikni shakllantirish mumkin. Davlatning sportga yo'naltirilgan tadbirlari yoshlarning faol va yangiliklarga ochiq avlod bo'lib rivojlanishini ta'minlaydi.

Ta'lim va tarbiya: Sport — yoshlarda tarbiya yuritishning samarali vositasidir. U tarbiyachilar, ustozlar va ota-onalarning yoshlarni milliy qadriyatlarga baham ko'rishini ta'minotlaydi. Sport musobaqalari va an'anaviy o'yinlar yordamida milliy ma'naviyatni oshirish mumkin.

Ma'naviy va jismoniy rivojlanish: Sport yoshlarning jismoniy holatini yaxshilashdan tashqari, ularning ma'naviy rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Nizomli trenirovka, jamoaviy musobaqalarda ishtirok etish, bir-biriga yordam berish hissinini shakllantiradi.

Madaniyat va an'analar: Sport milliy madaniyatning muhim bir qismi hisoblanadi. An'anaviy sport turlari yoshlarning hatto mahalliy xususiyatlarini ham ko'rsatish imkonini beradi. Bular jamiyatda milliy identiklikni shakllantiradi.

Jamiyatda umumiylik: Sport turli millat va dinidan kelgan odamlarni birlashtiradi. Bunda jamiyatda ko'p millatli muhitni qurish, o'zaro ehtirom, dialog va hamkorlikni ta'minlash muhimdir.

XULOSA

Sodda qilib aytganda, milliy identiklikni shakllantirishda sport vositasida ijtimoiy-pedagogik asoslar muhim o'rin tutadi. O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirish, o'z xalqining qadriyatlarini va an'alarini yaxshi bilish, anglash, qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Sport esa bu jarayonda qalbida mehr-muhabbat bilan yonish, yanada uzoqroq muvaffaqiyatlarga erishishga format beradi.

O'quvchilarda milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari, asosan, sportni tarbiya vositasi sifatida samarali foydalanish orqali amalga oshiriladi. Sport milliy urf-odatlar, qadriyatlar va tarixga bo'lgan muhabbatni yoshlarga yetkazish, ularda faxr va milliy baxt hissinini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, sport yoshlarning shaxs sifatida rivojlanishini ta'minlash, axloqiy va ijtimoiy qadriyatlarni saqlab qolishda ham muhim vosita hisoblanadi. Buning natijasida, kelajak avlodlarda milliy identiklik hissi mustahkamlanib, mamlakatning madaniy va ijtimoiy rivoji uchun muhim poydevor yaratiladi.

O'quvchilarda sport vositasida milliy identiklikni shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari mamlakatning ijtimoiy va madaniy rivojiga katta hissa qo'shadi. Sport orqali yoshlar o'z xalqiga bo'lgan muhabbatni, uning qadriyatlariga hurmatni shakllantirishga yordam beriladi. Sport nafaqat jismoniy rivojlanishni ta'minlaydi, balki yoshlarning ma'naviy, axloqiy va ijtimoiy qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Buning natijasida, kelajak avlodlarda milliy identiklik hissi mustahkamlanib, ularning mamlakat va millatga bo'lgan sadoqat hissi yanada oshadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent.: O'zbekiston. 2018, - B.37.
2. Norqobilov M.N., Mirxodjayeva Z.S., Mahmudov V.V. Jismoniy madaniyat va sport mashg'ulotlarida sog'lom turmush tarzini talabalar ongiga singdirishda pedagogik yondashuvlar. Monografiya. Toshkent, TIQXMMI, 2019, - B. 6-7.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» to'g'risidagi PF-5924-son Farmoni. 2020-yil 24-yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. 2020-yil 24-yanvar.
5. Губа В.П. и др. Измерения и вычисления в спортивно-педагогической практике. Москва.:Спорт академ Пресс, 2002. –С.86.